



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 200-208 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### TANLANGAN STRATEGIYALAR SAMARADORLIGI VA MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH AMALIYOTINING TAHLILI



**Baratova Zumrat Xalmetjanovna**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tanlangan strategiyalar samaradorligi va moliyaviy risklarni baholashning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda “Qo‘qon mexanika zavodi” AJ misolida moliyaviy risklarni SWOT tahlili, ARIMA va ARIMAX modellar asosida prognozlash hamda strategik qarorlar samaradorligini baholash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, korporativ boshqaruv, investitsion strategiyalar va raqamli texnologiyalarning moliyaviy barqarorlikka ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy risk, strategik boshqaruv, SWOT tahlili, ARIMA modeli, ARIMAX modeli, korporativ boshqaruv, investitsion strategiya, rentabellik, risk-menejment, ekonometrik prognozlash.

**Аннотация:** В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты оценки эффективности выбранных стратегий и финансовых рисков. На примере АО «Кокандский механический завод» проанализированы механизмы прогнозирования финансовых рисков на основе SWOT-анализа, моделей ARIMA и ARIMAX, а также оценки эффективности стратегических решений. Кроме того, научно обосновано влияние корпоративного управления, инвестиционных стратегий и цифровых технологий на финансовую устойчивость предприятия.

**Ключевые слова:** финансовый риск, стратегическое управление, SWOT-анализ, модель ARIMA, модель ARIMAX, корпоративное управление, инвестиционная стратегия, рентабельность, риск-менеджмент, эконометрическое прогнозирование.

**Annotation:** This article examines the theoretical and practical aspects of evaluating the effectiveness of selected strategies and financial risks. Using the example of Kokand Mechanical Plant JSC, the study analyzes financial risk forecasting mechanisms based on SWOT analysis, ARIMA and ARIMAX models, as well as the assessment of strategic decision effectiveness. The research also substantiates the impact of corporate governance, investment strategies, and digital technologies on the financial stability of enterprises.

**Key words:** financial risk, strategic management, SWOT analysis, ARIMA model, ARIMAX model, corporate governance, investment strategy, profitability, risk management, econometric forecasting.

#### Kirish

O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot Strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shish sur‘atlari ta‘minlanmoqda. Xususan,

korporativ tuzilmalarda zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy samaradorlikni oshirish hamda moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy uslublarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ularning risklarni oldindan aniqlash, baholash va prognoz qilish imkoniyatlariga bog'liq. Ayniqsa, globallashuv, xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik, valyuta kurslari tebranishi, inflyatsion bosimlar hamda geosiyosiy xavf-xatarlarning ortib borishi korporativ tuzilmalar faoliyatida moliyaviy risklarni baholash va boshqarishning zamonaviy mexanizmini joriy etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda korporativ boshqaruv tizimida tanlangan strategiyalar samaradorligini baholash nafaqat moliyaviy natijalarni oshirish, balki kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyot tajribalari shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar faoliyatida strategik moliyaviy qarorlarni qabul qilishda risklarni prognozlash, investitsion loyihalar samaradorligini baholash hamda moliyaviy ko'rsatkichlarning istiqboldagi dinamikasini aniqlash muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini transformatsiya qilish, korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6096-son Farmoni [1] va PQ-291-son Qarori [2]da korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, investitsion muhitni yaxshilash hamda subyektlar faoliyatida moliyaviy risklarni kamaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning ijrosi xo'jalik yurituvchi subyektlarda korporativ boshqaruv tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishini taqozo qiladi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy uslublaridan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan, risklarni prognoz qilishda tahliliy-axborot bazasidan samarali foydalanish past darajada, iqtisodiy jarayonlarning o'zgaruvchan sharoitida qaror qabul qilish tizimlari esa takomillashtirish zarurdir. Bu esa moliyaviy barqarorlikning pasayishiga, kapitaldan foydalanish samaradorligining yetarli darajada ta'minlanmasligi, shuningdek, investitsion risklarni oshishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur jihatlar esa, tanlangan strategiyalar samaradorligini baholash, moliyaviy risklarni identifikatsiya qilish va prognoz qilishning zamonaviy iqtisodiy-matematik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishini namoyon etadi.

### **Mavzuga doir adabiyotlar sharhi**

Moliyaviy risklarning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va "tabiatini" o'rganishda iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlari, tadqiqotlarini o'rganish hamda ular asosida xulosalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy risklarga tarif berishda ularning tarkibiy elementlari bo'yicha yondashish kerak, deb hisoblaymiz. Chunki moliyaviy risklarning har bir tarkibi alohida hususiyatga ega bo'lib, ularning kompaniyalar faoliyatiga ta'siri ham turlicha bo'ladi (miqdor va qiymat nuqtai nazaridan).

"Moliyaviy risklar tabiatiga ko'ra nafaqat davlat va korporativ tuzilmalarda o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarda aks etishi mumkin. Balki, risklar aholi, uy

xo'jaliklari va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq munosabatlarda ham alohida o'rganishni talab etadi. Bugungi raqamli moliyaviy texnologiyalarni rivojlanishi sharoitida aholi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali moliyaviy qo'yilmalari bilan bog'liq yo'qotishlar ya'ni risklarni oldini olish muhim sanaladi. Shuningdek, onlayn bank xizmatlarini ommalashuvi kompaniyalar tomonidan turli moliyaviy xavflarni oldini olish maqsadida axborot risklarni oldini olish borasida choralarni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Shuning uchun, bugungi xalqaro moliya munosabatlarini rivojlanayotganligi sharoitida moliyaviy risklarning "qamrovi" yanada kengaymoqda desak, to'g'ri bo'ladi" [3]. Kompaniyalarda moliyaviy risklarni samarali boshqarish ularda zamonaviy innovatsiyalarni ishlab chiqishga mo'ljallangan alohida ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Kompaniya zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda uning "yashillik" darajasiga e'tibor qaratilishi kelgusidagi risklarni kamaytirishda muhim o'rin tutadi" [4]. A.Damodaran (Aswath Damodaran)ning fikriga ko'ra, "portfelni boshqarishda baholash jarayoni ma'lum ma'noda investorning investitsion falsafasiga bog'liq. Passiv investor uchun baholash jarayoni portfelni boshqarishda minimal rol o'ynaydi, aktiv investor uchun esa aksincha. Shuning uchun investor uchun alohida kompaniyaning bozor bahosini hisoblab qaror qabul qilgandan ko'ra, portfel tarkibidagi aksiyalarning bozor baholarini aniqlab qaror qabul qilgan ijobiy natijaga olib keladi" [5].

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Professor O.K.Iminovning fikriga ko'ra, "korxonada moliyaviy risklari – bu uning moliyaviy faoliyati davomida foyda yoki kapitalini yo'qotish ehtimolligidir" [6]. R.X.Karlibaevaning fikriga ko'ra, "risk-menejment integrallashgan tizimining asosiy funksional vazifasi, moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida tashqi va ichki muhit ta'sirida vujudga keluvchi risklarni minimallashtirish yoki ularning salbiy ta'sirini neytrallashtirish hisoblanadi" [7]. Professor O.N. Xamdorovning fikriga ko'ra, "moliyaviy risk – bu tashqi muhitning noaniqlik sharoitida korxonalar tomonidan xo'jalik-moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda daromad va moliyaviy resurslarni yo'qotilishi kabi salbiy oqibatlarni paydo bo'lish ehtimolligidir. Korxonada moliyaviy risklar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadida aniq bir belgilari bo'yicha tasniflanishi lozim" [8]. Shuningdek, olim tomonidan bankrotlik riskini boshqarishga doir xulosalari bayon etilgan bo'lib, jumladan, bankrotlik riskini baholash - inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmining muhim tarkibiy qismi sanalib, inqiroz holatlarini (ehtimolligini) oldindan moliyaviy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish va aniqlangan bankrotlik riskini korxonada moliyaviy faoliyatiga ta'siri darajasini aniqlash hisoblanadi.

Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga asoslangan holda moliyaviy risklarning iqtisodiy mazmuni va turlariga doir quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

moliyaviy risk bu investitsiya yoki biznes faoliyatida kapitalning ma'lum biri qismini yo'qotish ehtimoli. Fikrimizcha, moliyaviy risklarning quyidagi turlari keng tarqalgan, ya'ni valyuta riski, inflyatsiya riski, foizlar riski, kredit riski, likvidlik riski va operatsion risklar;

moliyaviy risk bu biznes faoliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy voqelik bo'lib, bu manfaatdor shaxslarning kapitalini yo'qotishiga olib keladigan xavfning bir turi hisoblanadi;

aksariyat holatlarda moliyaviy risk kapitalni yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq.

odatda holat bilan izohlaganda, moliyaviy risk bu kompaniyaning pul oqimini o'z majburiyatlarini bajarish uchun yetarli emasligi ehtimoli sifatida yondashiladi;

makroiqtisodiy nuqtai nazardan, moliyaviy risk hukumat yoki davlatning o'z obligatsiyalari bo'yicha defolt yuzaga kelgan vaziyatda sodir bo'lishi mumkin;

umuman olganda, moliyaviy risklar bu kutilmagan yoki oldindan aytish murakkab bo'lgan vaziyat natijasida korporativ tuzilmalarning moliyaviy natijalarni salbiy tomonga o'zgarish ehtimolligi hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, tizimli yondashuv, SWOT tahlili, iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda ekonometrik prognozlash usullaridan foydalanildi. Moliyaviy risklarni baholashda ARIMA, ARIMAX, adaptiv modellar va trend tahlili kabi ekonometrik instrumentlar qo'llanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Moliyaviy risklarni boshqarishning muhim jihatlaridan biri tanlangan strategiyalar samaradorligini baholash mexanizmi hisoblanadi. Boshqacha aytganda moliyaviy risklarni kamaytirish va prognoz qilish yuzasidan ishlab chiqilgan metodlarni nechog'li kompaniya uchun ahamiyatli yoki foydali ekanligini aniqlash uchun strategiyalar samaradorligini baholovchi indikatorlardan iborat mexanizm zarur bo'ladi. Xalqaro amaliyotda strategiyalarni ishlab chiqish kompaniyalarning faoliyat yo'nalishlari, iqtisodiyot sektori bo'yicha tasnifi, tashkiliy huquqiy shakllari, ishlab chiqarish hajmi singari ko'plab omillarga bog'liq hisoblanadi. Shu bilan birga kompaniyalarning biznes-jarayonlari yoki biznes modellariga muvofiq u yoki bu strategiyalar tanlanadi.

Ta'kidlash joizki, loyihalarni boshqarishda pirovard moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi u yoki bu turdagi risklar mavjud bo'ladi. Salbiy risklar loyihalarning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bo'lib, moliyaviy menejerlar bu kabi risklarni prognoz qilishda tashqi omillarni hisobga olishi muhim hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda risklarni aniqlash va identifikatsiya qilishga doir bir qancha usullar mavjud. Biz tadqiqotlarimiz jarayonida ilmiy maqolani bajarish uchun mamlakatimizdagi yetakchi aksiyadorlik jamiyatlaridan sanalgan "Qo'qon mexanika zavodi" faoliyati bo'yicha xulosalarni shakllantirib o'tamiz. Jamiyatning 2019-2024 yillar mobaynida umumiy aktivlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligini kuzatish mumkin.

Xususan, "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatining jami aktivlari 2019 yildagi 89044,5 mln so'mdan 2024 yilga kelib 91965,0 mln so'mgacha oshgan bo'lib, mazkur davr mobaynida 2920,5 mln so'mga yoki 3,3 foizga o'sgan. Ushbu holat jamiyatning moliyaviy resurslari hajmi ma'lum darajada kengayganligini hamda aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar ulushi yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatadi (1-jadval). Tahlil natijalariga ko'ra, jamiyat aktivlari tarkibida asosiy ulushni joriy aktivlar tashkil etgan bo'lib, ularning hajmi 2019 yildagi 76609,39 mln. so'mdan 2024 yilga kelib 77863,1 mln. so'mgacha oshgan. Shu bilan birga, uzoq muddatli aktivlar hajmi ham

12435,11 mln. soʻmdan 14101,9 mln. soʻmgacha koʻpaygan. Mazkur koʻrsatkich korxonada asosiy vositalar va investitsion aktivlarni modernizatsiya qilishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi ortganligini ifodalaydi. Ayniqsa, uzoq muddatli investitsiyalar hajmining 2019 yildagi 275,51 mln soʻmdan 2024 yilga kelib 801,7 mln soʻmgacha oshganligi jamiyatning investitsion faolligi rivojlanganligini hamda istiqboldagi ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar amalga oshirilayotganligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, debitorlik qarzlarning 25865,8 mln. soʻmdan 8793,5 mln. soʻmgacha kamayganligi jamiyatda hisob-kitob intizomi va debitorlik qarzlarni boshqarish samaradorligi yaxshilanganligini bildiradi.

## 1-jadval

**“Qoʻqon mexanika zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2019-2024 yillar kesimida  
aktivlar hajmini oʻzgarish dinamikasi (mln soʻmda)<sup>1</sup>**

| Koʻrsatkichlar                   | 2019 y.        | 2020 y.        | 2021 y.        | 2022 y.        | 2023 y.        | 2024 y.        |
|----------------------------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|
| Uzoq muddatli aktivlar, shundan: | 12435,11       | 12416,8        | 14086,6        | 13432,5        | 13859,5        | 14101,9        |
| - asosiy vositalar               | 12148,01       | 11963,8        | 13348,5        | 12650,03       | 13025,6        | 13568,4        |
| - uzoq muddatli investitsiyalar  | 275,51         | 248,2          | 738,07         | 741,2          | 768,9          | 801,7          |
| Joriy aktivlar, shundan:         | 76609,39       | 75846,6        | 75895,2        | 76079,9        | 76246,1        | 77863,1        |
| - debitorlik qarzlari            | 25865,8        | 18542,3        | 11108,0        | 9470,1         | 9024,6         | 8793,5         |
| - pul mablagʻlari                | 28,2           | 98,3           | 841,6          | 0,947          | 385,6          | 298,7          |
| - TMZ                            | 20126,1        | 24531,7        | 31198,5        | 28094,5        | 30698,2        | 32654,3        |
| <b>Jami aktivlar</b>             | <b>89044,5</b> | <b>88263,4</b> | <b>89981,8</b> | <b>89512,4</b> | <b>90105,6</b> | <b>91965,0</b> |

Biroq, aktivlar tarkibida tovar-moddiy zaxiralar hajmining 2019 yildagi 20126,1 mln. soʻmdan 2024 yilga kelib 32654,3 mln. soʻmgacha oshganligi ishlab chiqarish xarajatlari va aylanma mablagʻlarga boʻlgan ehtiyoj ortganligini koʻrsatadi. Bu esa kelgusida jamiyat tomonidan zaxiralarni optimallashtirish hamda aylanma mablagʻlardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Biz tomondan mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda moliyaviy risklarni baholashda SWOT tahlili va uning natijalarini istiqbolli strategiyalarga taʼsiri oʻrganilgan boʻlib, jamiyatning iqtisodiy loyihalari boʻyicha, SWOT tahlilini oʻtkazish uchun Microsoft Excel, MindManager yoki SWOT Analysis Tool kabi dasturlardan foydalanish imkoniyatlariga ilmiy baho berilgan. Ushbu dasturlar loyihaning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va

<sup>1</sup> “Qoʻqon mexanika zavodi” AJning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

tahdidlarini tasavvur qilish uchun qulay vositalarni taqdim etish bilan birga, tahlil jarayonlariga chuqurroq va tizimli yondashish imkonini beradi. Dastlab, aksiyadorlik jamiyatining joriy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini hisobga olgan holda, uning zaif va kuchli tomonlari, shuningdek, tahdid va imkoniyatlar ro'yxati shakllantiriladi. Jamiyatning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, tahdid va imkoniyatlarining aniq ketma-ketligi tuzilgandan so'ng, keyingi bosqichda ular o'rtasida munosabatlar tartibi ishlab chiqiladi. Ilmiy nuqtai nazardan bu kabi munosabatlarni shakllantirish uchun "SWOT matritsasi" tuziladi (2-jadval).

2-jadval

**"Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga doir SWOT-matritsa<sup>2</sup>**

| <b>Kuchli tomonlari</b>   | <b>Kuchsiz tomonlari</b>  |
|---|---|
| Bozorda yuqori ustuvorlikka egaligi   | Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini tashkil etishdagi kamchiliklar          |
| Ishlab chiqarish assortimentining ko'pligi  | Kadrlar qo'nimsizligi   |
| Hududlarda ko'plab aksiyalarni tashkil etish va takliflarni ko'paytirish          | Tan-narx xarajatlarining yuqori ekanligi  |
| Yuqori malakali hodimlar  | Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning kamligi                                   |
| <b>Imkoniyatlar</b>   | <b>Tahdidlar</b>  |
| Yuqori iste'mol bozorining mavjudligi   | Tashqi bozorda raqobatning yuqori ekanligi                                      |
| Mahsulotlarni yetkazib berish muntazamligi  | Valyuta kurslari o'sishini xorijiy kredit qiymatiga ta'sirining yuqori ekanligi |
| Qo'shni davlatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talabning mavjudligi | Tarmoq tarkibidagi ayrim korxonalar moliyaviy barqarorligining pastligi         |
| Mehnat bozorida kadrlarning yetarli ekanligi                                      | Kreditlar va qarzarlar bo'yicha foizlarning yuqori ekanligi                     |

SWOT-matritsasi jamiyatning barcha imkoniyatlarini baholash orqali tuziladi. Albatta biz tomondan jamiyatning ushbu hususiyatlarini tasniflashda bevosita tegishli bo'linmalar bo'yicha mas'ul rahbarlar bilan birgalikda ishlar amalga oshirildi. Fikrimizcha, jamiyatning kuchli tomonlari, kelgusida korxonani moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga faoliyatni diversifikatsiyalash imkoniyatlarini oshiradi. Kuchsiz tomonlar esa, jamiyatning istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar ketma-ketligini ishlab chiqish zaruratini ifodalaydi. Bu esa jamiyat tomonidan moliyaviy strategiyalarni asosiy yo'nalishlarini belgilab olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir muhim jihatlaridan bir jamiyatning imkoniyatlari hisoblanadi, qolaversa ustav kapitalida davlat ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi bir tarafdin

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi

imkoniyat sifatida qaralsada, kelgusida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida bu kabi korxonalar uchun mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash borasida hozirdanoq qaror qabul qilishni taqozo etadi.

Albatta har qanday iqtisodiy subyektlar bozor sharoitida faoliyat yuritir ekan ma'lum bir hatarlar tahdidlarning bo'lishi tabiiy hisoblanadi. Biroq ushbu tashqi omillarning qay darajada ta'sir qilishi va kelgusidagi risklarni kamaytirish korxonahabariyati oldida turgan muhim va ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Tahlilning navbatdagi bosqichida matritsa natijalari bo'yicha miqdoriy baholash amalga oshiriladi, quyidagi jadvalda "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyati uchun mazkur ko'rsatkichlar hisoblab chiqilgan (3-jadval).

Olingan ma'lumotlarga asosanib, "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyatining yengil avtomobillar uchun gaz balloni, suv isitish qozoni, uy xo'jaliklari uchun gaz ballonlari ishlab chiqarish bo'yicha 2024-2031 hamda 2026-2030 yillarga mo'ljallangan investitsion loyihalari 56 ball to'plagan holda, o'zini qoplaydi hamda yuqori rentabellik ega loyihalar sifatida baholash mumkin. Mazkur investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va investitsion risk darajasini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni ishimizning keyingi bosqichida alohida to'htalamiz. Ta'kidlash kerakki, risklarni identifikatsiyalashning muhim natijalaridan biri bu aniqlangan risk ro'yxati va xavflar reestrini shakllantirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar hisoblanadi.

Risk reyestri - risklarni boshqarishning turli jarayonlari natijalarini o'z ichiga olgan hujjat bo'lib, aksariyat hollarda jadval yoki elektron jadval shaklida bo'ladi. Shuningdek, risklar reestrini mumkin bo'lgan risk hodisalari va ular bilan bog'liq tegishli ma'lumotlarni hujjatlashtirish uchun foydalaniladigan instrument sifatida tariflash mumkin. Albatta bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari, hususan tadqiq etilayotgan "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyadorlik jamiyati faoliyatida risklar reestrini yo'lga qo'yilishi investitsion loyig'alar bo'yicha risk hodisalarini prognoz qilish, loyihaning foyda yoki zarariga olib kelishi mumkin bo'lgan aniq, noaniq hodisalarni prognoz qilish imkonini beradi. Bu esa albatta ularning istiqbolli strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanilishi zarur bo'lgan ahborot ta'minotlaridan biri bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz.

### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korporativ tuzilmalarda tanlangan strategiyalar samaradorligini baholash hamda moliyaviy risklarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish korxonalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. "Qo'qon mexanika zavodi" AJ misolida amalga oshirilgan tahlillar natijasida jamiyatda aktivlar hajmining o'sishi, investitsion faollikning ortishi hamda debitorlik qarzlarni kamaytirish bo'yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilganligi aniqlandi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligi, valyuta risklari va tashqi bozordagi raqobat bosimining ortib borishi jamiyat moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi asoslandi.

Xalqaro amaliyot tajribalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda korporativ tuzilmalarda moliyaviy risklarni boshqarishda SWOT tahlili, risklar reestri, ARIMA va ARIMAX kabi ekonometrik modellar, stress-test hamda ssenariy tahlil usullaridan samarali foydalanilmoqda. Ayniqsa, kompaniyalarning investitsion strategiyalarini

shakllantirishda risklarni identifikatsiyalash va ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini oldindan baholash strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida qaralmoqda.

3-jadval

**SWOT matritsasini miqdoriy baholash (ballarda)<sup>3</sup>**

| SWOT omillari |   | Kuchli tomonlari                    |  |   |                          | Kuchsiz tomonlari                                    |                       |  |   |
|---------------|---|-------------------------------------|--|---|--------------------------|--|-----------------------|--|---|
|               |   | Bozorda yuqori ustuvorlikka egaligi | Ishlab chiqarish assortimentining ko'pligi | Hududlarda ko'plab takliflarni ko'paytirish | Yuqori malakali hodimlar | Zamonaviy KB tizimini tashkil etishdagi kamchiliklar | Kadrlar qo'nimsizligi | Tan-narx xarajatlarining yuqori ekanligi | Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning kamligi |
| Tahdidlar     | Tashqi bozorda raqobatning yuqori ekanligi                                      | 3                                   | 3  | 2   | 2                        | 2  | 2                     | 1  | 1   |
|               | Valyuta kurslari o'sishini xorijiy kredit qiymatiga ta'sirining yuqori ekanligi | 4                                   | 3  | 2   | 1                        | 3  | 2                     | 2  | 1   |
|               | Tarmoq tarkibidagi ayrim korxonalar moliyaviy barqarorligining pastligi         | 3                                   | 2  | 3   | 1                        | 2  | 2                     | 1  | 2   |
|               | Kreditlar va qarzar bo'yicha foizlarning yuqori ekanligi                        | 3                                   | 3  | 2   | 2                        | 2  | 2                     | 1  | 3   |
| Imkoniyatlar  | Yuqori iste'mol bozorining mavjudligi   | 4                                   | 4  | 3   | 2                        | 2  | 2                     | 3  | 2   |
|               | Mahsulotlarni yetkazib berish muntazamligi                                      | 3                                   | 3  | 2   | 3                        | 2  | 1                     | 3  | 2   |
|               | Qo'shni davlatlarda mahsulotlarga bo'lgan talabning mavjudligi                  | 4                                   | 3  | 2   | 2                        | 2  | 3                     | 2  | 1   |
|               | Mehnat bozorida kadrlarning yetarli ekanligi                                    | 3                                   | 4  | 4   | 2                        | 2  | 3                     | 1  | 2   |

Mazkur yondashuvlar investitsion loyihalar samaradorligini oshirish hamda moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish imkonini bermogda.

O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini transformatsiya qilish hamda korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan islohotlar korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Xususan, korporativ tuzilmalarda investitsion jozibadorlikni oshirish, IPO va korporativ obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish, shuningdek moliyaviy barqarorlik indikatorlarini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy va raqamli texnologiyalarni korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish moliyaviy risklarni prognoz qilish va strategik qarorlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Microsoft Excel, MindManager, SWOT Analysis Tool hamda iqtisodiy-matematik modellar asosida risklarni baholash tizimlari korxonalarda tahliliy-axborot bazasini mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, Big Data, sun'iy intellekt va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish moliyaviy risklarni erta aniqlash va investitsion qarorlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

SWOT tahlili natijalariga ko'ra, "Qo'qon mexanika zavodi" AJning bozordagi ustuvor mavqei, ishlab chiqarish assortimentining kengligi hamda investitsion loyihalarining yuqori rentabellik darajasi jamiyatning istiqboldagi rivojlanish salohiyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, innovatsion faoliyatning pastligi va ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi moliyaviy risklarni oshiruvchi asosiy omillar sifatida baholandi. Shuning uchun korxonada risklar

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi

reestrini shakllantirish va strategik risk monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096 sonli Farmoni.
  2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-291-sonli Qarori.
  3. Siyang Hu, Dongyang Liu, Digital economy, financial literacy, and financial risk-taking in rural households, *International Review of Economics & Finance*, Volume 98, 2025.
  4. Mirza Muhammad Naseer, Yongsheng Guo, Xiaoxian Zhu, When climate risk hits corporate value: The moderating role of financial constraints, flexibility, and innovation, *Finance Research Letters*, Volume 74, 2025.
  5. Damodaran, Aswath, *Equity Risk Premiums (ERP): Determinants, Estimation and Implications - The 2023 Edition* (March 23, 2023).
  6. Moliyaviy boshqaruv/Mualliflar jamoasi R.R.Hasanov, N.H.Haydarov, T.S.Malikov va boshq: - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009 y – 433 bet.
  7. Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari: diss.avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2018. – 27 b.
  8. Xamdamov O.N. Moliyaviy risklarni boshqarish uslubiyotini takomillashtirish. *Xalqaro moliya va hisob – Toshkent*, 2020. - № 6. - B. 1-9.
  9. Mariusz Hofmana, Grzegorz Grela Taxonomy of the project portfolio risks - an empirical investigation. // CENTERIS - International Conference on ENTERprise Information Systems. ScienceDirect, (2017) 137-144.
- Siyang Hu, Dongyang Liu, Digital economy, financial literacy, and financial risk-taking in rural households, *International Review of Economics & Finance*, Volume 98, 2025.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

